

UDC: 349.6(045)(575.1)

QURILISH SOHASIDA EKOLOGIK NAZORATNI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Nurullayev Shohrux Shuhratillayevich,
Toshkent davlat yuridik yuridik universiteti
tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0002-6831-559X
e-mail: shokhrukhnurullayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish sohasida ekologik nazoratning amalga oshirilish tartibi va huquqiy asoslariga to'xtalib o'tilgan bo'lib, ushbu sohaga oid qonunchilikdagi muammolar yuzasidan asosli takliflar berilgan. Qurilish sohasiga oid normalarda mavjud bo'lgan ekologik terminlarga huquqiy ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, qurilish ishlarida ekologik nazoratni amalga oshirishda jamoatchilik ekologik nazoratiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, urbanizatsiyalashuv jarayonlarining globallashuvi aholi sonining oshishi, infratuzilmaning o'zgarishi natijasida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilikka ham ta'sir ko'rsatishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Sohada uchrashi mumkin bo'lgan huquqiy muammolar prognoz qilindi va bartaraf etish mumkin bo'lgan farazlar ilgari surildi. Ekologik nazorat va ekologik ekspertizaning qurilish sohasidagi o'rni huquqiy jihatdan asoslantirildi. Tadbirkorlar tomonidan olib borilayotgan qurilish faoliyatining ekologik-huquqiy talablarga rioya qilinishi holati va muammolar sanab o'tildi. Ularga beriladigan imtiyozlar va belgilangan cheklar atrof-muhitni muhofaza qilish pozitsiyasidan kelib chiqqan holda ifodalab berildi. Xulosa qismida qurilish sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog'liq mexanizmlar yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: qurilish ekologiyasi, aholi punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik nazorat, ekologik ekspertiza, "yashil qurilish".

ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ

Нуруллаев Шохрух Шухратиллаевич,
базовый докторант
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются порядок и правовые основы экологического контроля в строительной отрасли, а также даются обоснованные рекомендации по вопросам законодательства в этой сфере. Нормы в области строительства дают правовые определения существующим экологическим терминам. Особое внимание также уделялось общественному экологическому контролю при осуществлении экологического контроля в ходе проводимых строительных работ. В частности, научно и теоретически проанализировано, что глобализация процессов урбанизации, рост населения, изменения в инфраструктуре также влияют на законодательство в области охраны окружающей среды. Прогнозируются возможные юридические проблемы в сфере и выдвигаются гипотезы по их предотвращению. Юридически обоснована роль экологического контроля и экологической экспертизы в сфере строительства. Перечислены состояние и проблемы соблюдения экологических и правовых требований в строительной деятельности, осуществляющей предпринимателями. Преимущества и ограничения, налагаемые на них, выражаются с точки зрения охраны окружающей среды. В заключительной части приведены конкретные предложения по

механизмам реализации подзаконных актов в области охраны окружающей среды в строительной сфере.

Ключевые слова: экология строительства, охрана окружающей среды населенных пунктов, экологический контроль, экологическая экспертиза, "зеленое строительство".

LEGAL ASPECTS OF ENVIRONMENTAL CONTROL IN CONSTRUCTION

Nurullaev Shokhrukh Shukhratillevich,

Basic Doctoral Student,

Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses the procedure and legal framework for environmental control in the construction industry, as well as provides sound recommendations on legislation in this area. Norm of the field in question provide legal definitions for existing environmental terms. Special attention was also paid to public environmental control in the implementation of environmental control in the course of ongoing construction work. In particular, it is scientifically and theoretically analyzed that the globalization of urbanization processes, population growth, changes in infrastructure also affect the legislation in the field of environmental protection. Possible legal problems in the field are predicted and hypotheses to overcome thereof are put forward. The role of environmental control and environmental expertise in the construction industry is legally substantiated. The state and problems of compliance with environmental and legal requirements of construction activities carried out by entrepreneurs are enumerated. The benefits and limitations imposed on them are expressed from the environmental protection perspective. In the final part, specific proposals are addressed on the mechanisms for implementing by-laws in the field of environmental protection of the construction industry.

Keywords: ecology of construction, environmental protection of settlements, environmental control, environmental expertise, "green building".

Kirish

Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonlari hamda qurilish ishlarini amalga oshirishda ekologik xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilm-oqda. Chunki atrof tabiiy muhitga ushbu sohalarda juda katta zarar yetkazilish hollari kuza-tiladi. Shu munosabat bilan ekologiya sohasini tartibga solishga qaratilgan turli mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning oltin-chi yo'nalishi global ekologik muammolar va ularning salbiy ta'siri, bajarilishi kerak bo'lgan masalalarga bag'ishlangan [1].

Qurilish sohasini huquqiy tartibga solish, qurilish faoliyatini amalga oshirishning shartnomaviy mexanizmlarini belgilash doimiy ravishda rivojlanishni taqozo etadi. Bugungi kunga kelib, inson faoliyatining mazkur turi

qat'iy ravishda belgilangan talablar, me'yollar va qoidalarga asosan olib borilishi zarur bo'lgan faoliyat yo'nalishlaridan biriga aylan-di. Bunda kishilarning sog'lig'i va xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitga zarar yetishining oldini olish maqsadida qurilish faoliyatini huquqiy tartibga solishda turli huquq sohalari bilan birga ekologiya huquqi ham muhim o'rinn tutadi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'yari ekan, uning oldida borliqni asrash, kelajak avlodning barqarorligini ta'minlash, turli ekologik muammolarning oldini olishdek dolzarb masala ko'ndalang turibdiki, bu hech kimni tashvishga solmay qolmaydi. Barcha ekologik muammolar inson bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlik va muvozanatning buzilishi oqibatida vujudga kelmoqda [2]. Shuning uchun ham qonunchilik orqali atrof tabiiy muhitni muho-

faza qilishga qaratilgan turli mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, qurilish sohasida bugungi kundagi keskin o'zgarishlar, jumladan, urbanizatsiyalashuv jarayonlarining globallashuvi, aholi sonining oshishi, infratuzilmaning o'zgarishi atrof-muhitni muhofaza qilish me'yorlariiga rioya qilishga to'sqinlik qilmoqda. Birgina Toshkent shahrida "2018–2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p qavatlari uylar qurish va rekonstruksiya qilish dasturining asosiy parametrlari"da 2020-yilda 982 ta ko'p qavatlari uylar qurilishi rejalashtirilganligi mavzuning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. E'tiborli jihat shundaki, mazkur uy-joy qurilgan yer atrofdagi o'simlik dunyosi, suv resursi, boshqa tabiiy obyektlar hajmi va foydalanish tartibiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Vaholanki, qonunchilik bilan hududiy ishlab chiqarish majmularini tarkib toptirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishni rivojlantirish hamda shaharlar, boshqa aholi punktlarini qayta qurish va ta'mirlashda atrof tabiiy muhitga bo'ladi-gan ta'sirning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan me'yorlari belgilanadi.

Material va metodlar

Tadqiqotni amalga oshirishda an'anaviy metodlardan foydalanilgan bo'lib, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Shu bilan birga, empirik materiallar, xususan, statistik ma'lumotlar, milliy qonunchilik va amaliyot tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, "yashil infratuzilma"ni yaratish, binolarning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlar, past uglerodli texnologiyalar (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) va xususiy xo'jaliklarda yanada toza yoqilg'i turlaridan foydalanishni rag'batlantirish kabilar belgilangan.

Ta'kidlash joizki, qurilish sohasida gi ma'lum bir harakatlarga tabiiy obyektlar muhofazasi nuqtai nazaridan taqilqlar qo'yiladi.

Huquqshunos olma G.SH. Uzakovning fikricha, atrof-muhitning bugungi holati "yashil shahar" konsepsiysi doirasida "tabiat-inson-shahar" tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bunda "yashil qurilish"ni rivojlantirish, jumladan, energiya tejamkor bino-inshootlar barpo etish, fuqarolarning qulay yashash muhitiga ega bo'lishini ta'minlash muhim yo'nalishlar sifatida ko'rildi [3].

Huquqshunos olim J. Safarovning ta'kidlashicha, ekologizatsiyalash masalasi atrof tabiiy muhit va alohida tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ta'minlash zaruriyatini nuqtai nazaridan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini cheklash bilan bog'liq [4].

Davlat ham, o'z navbatida, kelgusi avlodga ziyon yetkazmay qoldirish majburiyatini amalga oshirish maqsadidan kelib chiqqan holda, ekologik talablar ustuvorligini tanoladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydag'i PQ-4335-sonli qaroriga ko'ra, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarni ko'mir va tabiiy gazga muqobil bo'lgan boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishga o'tkazishda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirish bo'yicha ekologik talablarga amal qilinishini ta'minlanishi belgilangan. Ushbu qarorda belgilangan tartib ekologiya va atrof tabiiy muhitga katta foyda keltirib, ekologiyaga yetkaziladigan zararlarni minimal darajaga tushiradi.

Binobarin, qurilish sohasida ishlatiladigan materiallarning aksariyatiga tabiiy mahsulotlar yordamida ishlov beriladi yoki qayta ishlanadi. Ushbu jarayonlarni tartibga solish va xabardor bo'lib turish maqsadida ekologik qonunchilikda ekologik nazorat instituti mavjud.

Zero, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishin-

ing oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimi alohida o'rinn tutadi. Qonunchilikda ushbu chora-tadbirlar tizimi ekologik nazorat deb atalib, shu sohadagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Mamlakatimizda ekologik nazoratni tartibga soluvchi alohida "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun ekologik nazoratni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni o'z ichiga olgan.

Mazkur Qonunning 9-moddasida ekologik nazoratning turlari belgilangan bo'lib, ularga davlat ekologik nazorati, idoraviy ekologik nazorat, ishlab chiqarish ekologik nazorati hamda jamoatchilik ekologik nazorati kiradi. Ekologik nazorat turlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bevosita qurilish faoliyati bilan bog'liqdir.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagい 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 6-bandiga ko'ra, davlat ekologik nazorati shakllari quydagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilinishi, davlat dasturlari va boshqa ekologik dasturlar amalga oshirilishini tekshirish;

- atrof-muhit monitoringi;

- davlat ekologik ekspertizasi.

Davlat ekologik nazorati atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish, atrof-muhit hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning holatini tahlil etish, baholash va prognoz qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat ekologik nazoratini amalga oshirishda yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish borasida qurilish va boshqa ishlar uchun berilgan yerlarni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar majmuasi-

ning bajarilishi, shuningdek, reyd tartibidagi ekologik nazoratni amalga oshirishda yonuchi moddalar va qurilish materiallarini ochiq alangada yondirish yoki omborga joylash-tirishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilinmaganligi holatlarini aniqlash belgilangan. Shu bilan birga, qurilishning barcha turlari uchun yer uchastkalari tanlash materiallari davlat ekologik ekspertizasining obyektlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, qurilish faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida ekologik nazoratni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining o'rni alohida o'rinn tutadi.

Jamoatchilik ekologik nazorati – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarini buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga doir jamoatchilik chora-tadbirlari tizimi hisoblanib, quyidagilar jamoatchilik ekologik nazoratining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarini buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish;

- atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;

- mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

- yuridik va jismoniy shaxslarning atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, ular tomonidan majburiyatlar bajariishini ta'minlash;

- atrof-muhitdagi o'zgarishlar, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko'rيلayotgan te-

gishli chora-tadbirlar to'g'risida davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar hamda fuqarolarni xabardor qilishda ishtirok etish;

- tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta'minlash.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tahlillar natijasida ko'rishimiz mumkinki, qurilish ishlarida ekspertiza o'tkazilishi jarayonlarida ham jamoatchilikning o'rni beqiyos bo'lib, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunning 23-moddasiga binoan, jamoat ekologik ekspertizasi ekologik asoslanishi taqozo etiladigan har qanday faoliyat sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, qurilish ishlari amalga oshirilishi jarayonlarini jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan kuzatib borilishi hamda atrof tabiiy muhitga zarar yetkazish hollari aniqlangan taqdirda tegishli xulosalar berish huquqini beradi.

Shuningdek, qonunchilik orqali davlat ekologik ekspertizasi amalga oshirilishidan qat'i nazar, jamoatchilik ekologik nazorati amalga oshirilishi mumkinligi hamda bunga aralashishning qat'iy man etilishi belgilangan.

Ekologik nazoratni ta'minlovchi huquqiy tizim yaratilgan bo'lsa-da, qurilish sohasida tegishli ishlarni amalga oshirishda belgilangan qoidalarga amal qilmaslik natijasida atrof tabiiy muhitga katta zarar yetkazilishi mumkin. Shuningdek, qurilish faoliyatida ekologik nazoratni amalga oshirishda nafaqat davlat organlari, balki jamoatchilikning o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarida ekologiyaga yetkazilayotgan holatlarda davlat organlaridan ko'ra jamoatchilik nazoratining ta'sirchanlik ko'lami yuqoriligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida,

ekologiya va atrof-muhitni asrashda fuqarolarning befarq emasligini ko'rsatib, qurilish faoliyatini nazorat qiluvchi tegishli vakolatli davlat organlarining bekamiko'st ishlashiga ko'maklashadi va mas'ul davlat tashkilotlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini oshiradi.

Xulosalar

Qurilish sohasida davlat ekologik nazorati amalga oshirilishi bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar hamda ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni bildirib o'tamiz.

Birinchidan, atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida qonunchilik talablariga rioya etilishi borasida nazoratga olinishi lozim bo'lgan faoliyat Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagি 216-sон qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 32-bandida "davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatlari davlat organlari ularga yuklangan vazifalarga muvofiq, o'z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda foydali qazilma boyliklarni qazib olish, qurilish va boshqa ishlar uchun berilgan qishloq xo'jaligi va o'rmon yerlari, boshqa yerkunlar, ularga zarurat qolmaganda – maqsadga ko'ra foydalanishga yaroqli holga keltirishni o'z ichiga oluvchi yerlarni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar majmuasi bajarilishini tekshirishi aks etgan. Mazkur normaning tegishli qismidagi "boshqa yerlarni" tushunchasiga aniqlik kiritib ketish maqsadga muvofiq;

Ikkinchidan, mazkur nizomning 40-bandida "reyd tartibidagi ekologik nazorat:

- yonuvchi moddalar va qurilish materiallarini ochiq alangada yondirish yoki omborga joylashtirishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilinmaganligi;

- maxsus texnika vositalarini qo'llamasdan bitum eritilganligi, aholi punktlari va dalalar da daraxt novdalari, ekin o'rib olingan yerlar va boshqa o'simlik qoldiqlari yondirilganligi;

- daraxtlarni noqonuniy kesish, hayvonlarni ovlash holatlarini aniqlash va to'xtatish yuzasidan tezkor nazorat tadbirlarini amalga oshirish zarurati bo'lganda amalga oshiriladi;

- chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida qonun hujjatlari tablalariga rioya qilinmaganligi" kabi aks etgan. Mazkur norma tushunarsiz bayon

qilinganligi sababli qayta ko'rib chiqish lozim.

Uchinchidan, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunning 11-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 51-bandi takror bo'lib, yuridik texnika qoidalariga to'g'ri kelmaydi.

Jadval

Qurilish sohasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq normativ hujjatlardagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar

"Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi	"Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 51-bandi
<p><i>Davlat ekologik ekspertizasi obyektlari quyidagilardan iborat:</i></p> <p>davlat dasturlari, konsepsiyalari, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihalari;</p> <p>barcha turdag'i qurilishlar uchun yer uchastkalari ajratish materiallari;</p> <p>loyihaoldi va loyiha hujjatlari;</p> <p>tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq, xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo'riqnomaviy-uslubiy hujjatlarning loyihalari;</p> <p>texnika, texnologiya, materiallar, moddalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar;</p> <p>atrof tabiiy muhit holati va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlar;</p> <p>keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik vaziyat va ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida o'tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari;</p> <p>shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari;</p> <p>maxsus huquqiy rejimli obyektlar.</p>	<p><i>Quyidagilar davlat ekologik ekspertizasining obyektlari hisoblanadi:</i></p> <p>davlat dasturlari, konsepsiyalari, ishlab chiqarish kuchlari joylashtirish sxemalar, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish loyihalari;</p> <p>qurilishning barcha turlari uchun yer uchastkalarini tanlash materiallari;</p> <p>loyihaoldi va loyiha hujjatlari;</p> <p><i>tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyati yoki boshqa faoliyatni tartibga soluvchi, normativ-texnik va yo'riqnomaviy-metodik hujjatlar loyihalari;</i></p> <p>texnika, texnologiyalar, materiallar, moddalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratish bo'yicha hujjatlar;</p> <p>atrof tabiiy muhitning holati va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan faoliyat yuritayotgan korxonalar va boshqa obyektlar;</p> <p>keyinchalik ularga muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik vaziyat va tabiiy ofat zonalari maqomini berish maqsadida hududlarni kompleks ko'zdan kechirish materiallari;</p> <p>shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari;</p> <p>maxsus huquqiy rejimli obyektlar.</p>

To'rtinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagagi 216-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik nazoratini

amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 42-bandida "davlat ekologik nazorati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari

reyd tartibidagi ekologik nazoratni mustaqil, shuningdek, muvofiqlashtirilgan tadbirlar rejasiga asosida birgalikda amalga oshirishi mumkin” deyilgan bo’lib, mazkur reyd o’tkazish jarayoniga jamoat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlar yoki jamoat ekologik inspektorini ham jalb qilish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalari ni auksion orqali berishda “yashil iqtisodiyot” tamoyiliga asoslangan holda tayanish muhimdir [3].

Yuqoridaqilardan ko’rinadiki, qurilish faoliyatida ekologik nazoratni amalga oshirishda ekologik nazoratning umumiy tartibi va qoidalari qo’llaniladi. Bu esa, o’z navbatida, xavfsiz qurilish hamda ekologiya va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero,

mutaxassislar prognoziga ko’ra, 2050-yilga borib, dunyo aholisi 10 milliard kishiga yetishi va demografik o’sish keskinlashuvi ro’y beradi.

Bu borada shahar hududining rivojlanishi va qurilishi uchun ekologik jihatdan asoslangan rejallashtirish tamoyili, asosan, hududiy rejallashtirish, hududlarni qurish ekologik ekspertiza uchun ekologik talablarda namoyon bo’ladi [5]. Ta’kidlash joizki, qonunda nazarda tutilgan huquqdan foydalanish yoki foydalanmaslik tabiatdan foydalanuvching xohish-irodasiga bog’liq bo’lib, davlat nafaqat subyektga qurish huquqini beradi, balki uning erkinligi chegarasi, shu jumladan, huquq bilan bog’liq majburiyatlarni ham belgilaydi [6].

Shu jihatdan olib qaraganda, muhokama qilingan mavzu tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo’lini qat’iy davom ettiramiz [We will resolutely pursue the path of democratic reforms on the basis of the new development strategy of Uzbekistan]. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the joint session of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dedicated to the inauguration ceremony. 06.11.2021. Available at: <http://www.president.uz/>.
2. Xolmo’mnov J.T. O’zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi [Ecological law of the Republic of Uzbekistan]. Ed. U. Tadzhihanov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2003, 268 p.
3. Uzakova G.Sh. Aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tartibi [Legal order of use and protection of natural resources in settlements]. Abstract of Doctor’s degree dissertation. Tashkent, TSUL, 2021.
4. Safarov J.I. Ekoliya sohasida qonun hujjatlari tizimi va ularni kodifikatsiyalash [System of legal documents in the field of ecology and their codification]. Doctor’s degree dissertation. Tashkent, IIV Academy, 2018, p. 113.
5. Uzakova G.Sh. Shaharlarda qurilish faoliyatini ekologizatsiyalashning huquqiy masalalari [Legal issues of green construction activities in cities]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, 2021, no. 2, pp. 58-69.
6. Uzakova G. Environmental-legal regulation of construction activities in cities in the context of fast urbanization. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, vol. 3, pp. 72-82. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume03Issue02-10/.
7. Xolmo’mnov J. O’zbekiston Respublikasi ekologiya huquqi [Environmental law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2003.

8. Shadimetov Yu.Sh. Ekologik huquq [Environmental law]. Tashkent, 2013.
9. Baram M.S. Environmental law and construction project management. *Public Contract Law Journal*, 1974, vol. 6, no. 2, pp. 210-28. JSTOR. Available at: <http://www.jstor.org/stable/25753837/>.
10. Rathnasinghe I., Rathnasinghe A., Abeynayake M. Impact of Environmental Law and Physical Planning Law to the Construction Projects in Sri Lanka. Conference: The 10th International Conference on Industrial Engineering and Operations ManagementAt, Dubai, United Arab Emirates, 2020.
11. European Environment Agency. The European Environment.State and Outlook 2015, Synthesis Report; European Environment Agency, Copenhagen, Denmark, 2015, p. 212.
12. Brand U., Wissen M. What Kind of Great Transformation? The Imperial Mode of Living as a Major Obstacle to Sustainability Politics. *GAIA-Ecol. Perspect. Sci. Soc.*, 2018, no. 27, pp. 287-292. DOI: 10.14512/gaia.27.3.8/.
13. Geels F.W. Technological transitions as evolutionary reconfiguration processes: A multi-level perspective and a case-study. *Res. Policy*, 2002, no. 31, pp. 1257-1274. DOI: 10.1016/S0048-7333(02)00062-8/.
14. German Advisory Council on Global Change. World in Transition. A Social Contract for Sustainability, Flagship. Report, German Advisory Council on Global Change, Berlin, Germany, 2011, p. 420.
15. Andruleit H., Elsner H., Homberg-Heumann D., Huy, D., Meßner J., Pein M., Schauer M., Schmidt S., Schmitz M., Szurlies M. et al. Deutschland. Rohstoffsituation, 2016. German Federal Institute for Geosciences and Natural Resources, Hannover, Germany, 2017, p. 161.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:
Xodjayev Baxshillo Kamolovich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ikrom Ergashev
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov
Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova
Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 47.
TDYU tipografiyasida chop etildi.